



# SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI











*(2022- yilning yanvar-iyun oyi uchun  
dastlabki ma'lumot)*



2022- yilning yanvar-iyun oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 143,4** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilga nisbatan **300,8** mln. AQSh dollariga yoki **35,7%** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-iyun , mln. AQSh dollari)

|                     | 2021-yil | 2022-yil | O'sish sur'ati, % da | Jamiga nisbatan, % da |
|--|----------|----------|----------------------|-----------------------|
| <b>Tashqi savdo aylanmasi</b>  | 842,6    | 1 143,4  | 135,7                | x                     |
| <b>Eksport</b>    | 222,3    | 315,6    | 142,0                | 100,0                 |
|  <i>tovarlar</i>  | 212,6    | 307,5    | 144,7                | 97,4                  |
|  <i>xizmatlar</i> | 9,7      | 8,1      | 83,3                 | 2,6                   |
| <b>Import</b>     | 620,4    | 827,8    | 133,4                | 100,0                 |
|  <i>tovarlar</i>  | 619,4    | 826,5    | 133,4                | 99,8                  |
|  <i>xizmatlar</i> | 0,9      | 1,3      | 141,2                | 0,2                   |
| <b>Saldo</b>      | -398,1   | -512,2   | x                    | x                     |
|  <i>tovarlar</i>  | -406,9   | -519,0   | x                    | x                     |
|  <i>xizmatlar</i> | 8,8      | 6,8      | x                    | x                     |





*Ma'lumot uchun: Samarqand Viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi **315,6** mln. AQSh dollariga (**42,0** % ga ko'paydi) va import hajmi **827,8** mln. AQSh dollariga (**33,4** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – **512,2** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## SAMARQAND VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-iyun , mln. AQSh dollari)



|   |   |   |  |   |
|---|---|---|--|---|
|  |  |  |  |  |
| TSA – 226,0<br>Eksport – 58,2<br>Import – 167,8                                     | TSA – 183,3<br>Eksport – 50,1<br>Import – 133,2                                     | TSA – 175,4<br>Eksport – 24,4<br>Import – 151,0                                     | TSA – 90,3<br>Eksport – 38,9<br>Import – 51,4  | TSA – 48,3<br>Eksport – 0,1<br>Import – 48,2  |
| Rossiya<br>Federatsiyasi  | Qozog'iston   | Xitoy Xalq<br>Respublikasi  | Turkiya  | Yaponiya  |
|  |  |  |  |  |
| TSA – 32,1<br>Eksport – 0,4<br>Import – 31,7  | TSA – 31,2<br>Eksport – 27,7<br>Import – 3,5  | TSA – 25,4<br>Eksport – 1,3<br>Import – 24,1  | TSA – 24,3<br>Eksport – 7,8<br>Import – 16,5   | TSA – 24,2<br>Eksport – 2,1<br>Import – 22,1  |
| Hindiston   | Tojikiston  | Germaniya   | Belarus<br>Respublikasi  | Ukraina   |





Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 81 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 11 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Tojikiston, Qirg'iz Respublikasi, Afg'oniston, Singapur, Ozarbayjon, AQSh va BAA shular jumlasidandir. Qolgan 70 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

## SAMARQAND VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2022- yil yanvar-iyun , mln. AQSh dollari)



Samarqand Viloyati jahonning **81** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (**19,8 %**), Qozog'istonda (**16,0 %**), Xitoy Xalq Respublikasida (**15,3 %**), Turkiyada (**7,9 %**), Yaponiya (**4,2 %**), Hindiston (**2,8 %**) va Tojikiston (**2,7 %**) qayd etilgan.



# SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun mln. AQSh dollari)













| Davlatlar   | 2020- y.     | 2021- y.     | 2022- y.     |
|---|--------------|--------------|--------------|
|  <b>Rossiya Federatsiyasi</b>   | <b>102,8</b> | <b>141,1</b> | <b>226,0</b> |
| <i>Eksport</i>  | 28,6         | 49,3         | 58,2         |
| <i>Import</i>   | 74,2         | 91,7         | 167,8        |
|  <b>Qozog'iston</b>             | <b>71,3</b>  | <b>99,9</b>  | <b>183,3</b> |
| <i>Eksport</i>  | 24,4         | 22,6         | 50,1         |
| <i>Import</i>   | 46,9         | 77,3         | 133,2        |
|  <b>Xitoy Xalq Respublikasi</b> | <b>141,9</b> | <b>127,1</b> | <b>175,4</b> |
| <i>Eksport</i>  | 11,5         | 26,1         | 24,4         |
| <i>Import</i>   | 130,4        | 101,0        | 151,0        |
|  <b>Turkiya</b>                 | <b>63,2</b>  | <b>76,2</b>  | <b>90,3</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 13,4         | 18,8         | 38,8         |
| <i>Import</i>   | 49,8         | 57,4         | 51,5         |
|  <b>Yaponiya</b>              | <b>37,3</b>  | <b>40,2</b>  | <b>48,3</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 0,1          | 0,0          | 0,1          |
| <i>Import</i>   | 37,2         | 40,2         | 48,2         |
|  <b>Hindiston</b>             | <b>7,3</b>   | <b>16,8</b>  | <b>32,1</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 0,2          | 0,1          | 0,4          |
| <i>Import</i>   | 7,1          | 16,7         | 31,7         |
|  <b>Tojikiston</b>            | <b>15,1</b>  | <b>27,5</b>  | <b>31,2</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 14,3         | 25,2         | 27,7         |
| <i>Import</i>   | 0,8          | 2,3          | 3,5          |
|  <b>Germaniya</b>             | <b>14,7</b>  | <b>22,6</b>  | <b>25,4</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 0,6          | 1,4          | 1,3          |
| <i>Import</i>   | 14,1         | 21,2         | 24,1         |
|  <b>Belarus Respublikasi</b>  | <b>8,2</b>   | <b>7,9</b>   | <b>24,3</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 4,0          | 4,1          | 7,8          |
| <i>Import</i>   | 4,2          | 3,8          | 16,5         |
|  <b>Ukraina</b>               | <b>15,1</b>  | <b>34,0</b>  | <b>24,2</b>  |
| <i>Eksport</i>  | 3,1          | 5,2          | 2,1          |
| <i>Import</i>   | 12,0         | 28,8         | 22,1         |

# SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-iyun mln. AQSh dollari)



| Davlatlar  | 2020- y.    | 2021- y.    | 2022- y.    |
|--|-------------|-------------|-------------|
|  <b>Sloveniya</b>            | <b>17,8</b> | <b>19,7</b> | <b>23,7</b> |
| <i>Eksport</i>   | 0,0         | 0,0         | 0,0         |
| <i>Import</i>  | 17,8        | 19,7        | 23,7        |
|  <b>Qirg'iz Respublikasi</b> | <b>10,8</b> | <b>15,8</b> | <b>21,8</b> |
| <i>Eksport</i>   | 9,7         | 15,4        | 20,1        |
| <i>Import</i>  | 1,1         | 0,4         | 1,7         |
|  <b>Afg'oniston</b>          | <b>7,6</b>  | <b>10,7</b> | <b>21,3</b> |
| <i>Eksport</i>   | 7,5         | 10,6        | 20,9        |
| <i>Import</i>  | 0,1         | 0,1         | 0,4         |
|  <b>Singapur</b>             | <b>4,4</b>  | <b>12,8</b> | <b>18,3</b> |
| <i>Eksport</i>   | 4,1         | 12,5        | 18,2        |
| <i>Import</i>  | 0,3         | 0,3         | 0,1         |
|  <b>Eron</b>               | <b>9,6</b>  | <b>15,5</b> | <b>18,2</b> |
| <i>Eksport</i>   | 1,0         | 2,0         | 2,9         |
| <i>Import</i>  | 8,6         | 13,5        | 15,3        |
|  <b>Litva</b>              | <b>12,3</b> | <b>11,6</b> | <b>17,0</b> |
| <i>Eksport</i>   | 1,3         | 0,2         | 4,4         |
| <i>Import</i>  | 11,1        | 11,4        | 12,6        |
|  <b>Polsha</b>             | <b>8,7</b>  | <b>6,2</b>  | <b>13,5</b> |
| <i>Eksport</i>   | 0,9         | 1,2         | 5,6         |
| <i>Import</i>  | 7,8         | 5,0         | 7,9         |
|  <b>Latviya</b>            | <b>15,3</b> | <b>13,1</b> | <b>13,4</b> |
| <i>Eksport</i>   | 0,5         | 0,4         | 1,0         |
| <i>Import</i>  | 14,8        | 12,7        | 12,4        |
|  <b>Gruziya</b>            | <b>10,9</b> | <b>11,2</b> | <b>13,1</b> |
| <i>Eksport</i>   | 1,8         | 1,2         | 3,6         |
| <i>Import</i>  | 9,1         | 10,0        | 9,5         |
|  <b>Turkmaniston</b>       | <b>9,3</b>  | <b>11,7</b> | <b>11,1</b> |
| <i>Eksport</i>   | 2,7         | 1,6         | 2,2         |
| <i>Import</i>  | 6,6         | 10,1        | 8,9         |

## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-iyun )\*



|  | Mln. AQSh dollari | O'sish sur'ati, % da |
|---|-------------------|----------------------|
| <b>Samarqand viloyati</b>   | <b>1 143,4</b>    | <b>135,7</b>         |
| Samarqand shahri  | 575,4             | 142,5                |
| Kattaqo'rg'on shahri  | 15,3              | 125,0                |
| tumanlar:   |                   |                      |
| Oqdaryo   | 22,1              | 112,9                |
| Bulung'ur   | 11,9              | 113,5                |
| Jomboy  | 123,3             | 152,8                |
| Ishtixon  | 17,2              | 2,5 m.               |
| Kattaqo'rg'on   | 13,7              | 114,6                |
| Qo'shrabot  | 3,6               | 144,9                |
| Narpay  | 8,5               | 81,8                 |
| Payariq   | 6,4               | 84,1                 |
| Pastdarg'om   | 39,1              | 183,3                |
| Paxtachi  | 10,9              | 77,3                 |
| Samarqand   | 93,3              | 108,7                |
| Nurobod   | 15,5              | 83,8                 |
| Urgut   | 96,2              | 131,6                |
| Toyloq  | 87,3              | 150,5                |

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Samarqand sh. – 575,4**

**Jomboy – 123,3**

**Urgut – 96,2**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Narpay – 8,5**

**Payariq – 6,4**

**Qo'shrabot – 3,6**



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **50,3** % ulush bilan **575,4** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,3** % ulush bilan **3,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-iyun oyida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **46,5** % ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilning mos davriga nisbatan ulushi **5,3** % ga ko'paygan.

## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun , mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2022- yilning yanvar-iyun oyida 2021- yilning mos davriga nisbatan **5,3** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **53,5** % ni tashkil etdi.







Samarqand Viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2022- yil yanvar-iyun holatiga **531,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **176,4** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **355,4** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

## SAMARQAND VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2022- yil yanvar-iyun , mln. AQSh dollari)



Samarqand Viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushlari Rossiya Federatsiyasi (**42,5** %), Qozog‘iston (**34,5** %) hamda Tojikiston (**5,9** %) davlatlari bilan qayd etildi.






Samarqand Viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **455,9** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **136,3** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **319,5** mln. AQSh dollariga yetdi.

## SAMARQAND VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyun , mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



## SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI


(2022- yil yanvar-iyun )



Joriy yilning yanvar-iyun oyida viloyatning eksportyorlari soni **452** tani tashkil etib, ular tomonidan **315,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan **42,0** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-iyun , ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **97,4** % ni tashkil etib, sanoat tovarlari (**37,5** %) oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**30,2** %), hamda turli xil tayyor buyumlar (**7,4** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## SAMARQAND VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (yanvar-iyun , yillar kesimida)



| XSST tarkibi   | Mln. AQSh dollari |              | O'sish sur'ati,<br>% da |              | Umumiy<br>hajmga nis-<br>batan. % da |              |
|--|-------------------|--------------|-------------------------|--------------|--------------------------------------|--------------|
|  | 2021              | 2022         | 2021                    | 2022         | 2021                                 | 2022         |
| <b>Jami eksport</b>  | <b>222,3</b>      | <b>315,6</b> | <b>147,2</b>            | <b>142,0</b> | <b>100,0</b>                         | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>   |                   |              |                         |              |                                      |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 70,7              | 95,2         | 105,2                   | 134,7        | 31,8                                 | 30,2         |
| Ichimliklar va tamaki  | 2,3               | 2,7          | 3,8 m.                  | 117,6        | 1,0                                  | 0,8          |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 14,7              | 12,8         | 2,4 m.                  | 87,3         | 6,6                                  | 4,1          |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 0,5               | 4,8          | -                       | 8,9 m.       | 0,2                                  | 1,5          |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 0,1               | 11,5         | 1,3                     | 165,8 m.     | 0,0                                  | 3,6          |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 10,1              | 16,2         | 6,0 m.                  | 160,6        | 4,5                                  | 5,1          |
| Sanoat tovarlari   | 66,6              | 118,5        | 2,3 m.                  | 177,8        | 30,0                                 | 37,5         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunolari   | 25,6              | 22,7         | 150,6                   | 88,6         | 11,5                                 | 7,2          |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 21,9              | 23,2         | 133,3                   | 105,9        | 9,9                                  | 7,4          |
| Xizmatlar  | 9,7               | 8,1          | 134,6                   | 83,3         | 4,4                                  | 2,6          |

## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun )



| XSST bo'limi nomi   | Mln. AQSh dollari | 2021- yilga nisbatan, % da |
|---|-------------------|----------------------------|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>                                       |                   |                            |
| Sabzavotlar va mevalar  | 70,0              | 144,7                      |
| Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)                             | 13,1              | 87,6                       |
| Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari  | 7,3               | 2,2 m.                     |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>  |                   |                            |
| Ichimliklar   | 2,7               | 117,5                      |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>                                      |                   |                            |
| To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari   | 8,7               | 84,6                       |
| Moy olinadigan urug'lar va mevalar  | 3,3               | 85,7                       |
| <b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>                |                   |                            |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar                                | 3,1               | 5,7 m.                     |
| <b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>                      |                   |                            |
| O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)                      | 11,5              | 166,7 m.                   |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b> |                   |                            |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar   | 13,8              | 181,2                      |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari  | 1,3               | 138,1                      |
| Bo'yoqlar va bo'yovchi moddalar   | 0,9               | 198,1                      |
| Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar   | 0,1               | 97,2                       |



## XSST BO‘LIMI BO‘YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun )




| XSST bo‘limi nomi  | Mln. AQSh dollari | 2021- yilga nisbatan, % da |
|--|-------------------|----------------------------|
| <b>Sanoat tovarlari</b>  |                   |                            |
| To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar                                | 62,9              | 118,2                      |
| Cho‘yan va po‘lat  | 35,6              | 7,1 m.                     |
| Boshqa joyda tasniflanmagan metaldan tayyorlangan buyumlar   | 8,3               | 2,5 m.                     |
| Rangli metal   | 8,0               | 50,6 m.                    |
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>  |                   |                            |
| Avtomobillar   | 18,0              | 78,2                       |
| Aniq sohalar uchun maxsus bo‘lgan mashinalar va uskunalar  | 1,5               | 115,0                      |
| Boshqa joyda tasniflanmagan elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari                   | 1,5               | 195,9                      |
| Aniq sohalar uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va uskunalar  | 1,3               | 3,6 m.                     |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>   |                   |                            |
| Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari  | 18,2              | 110,6                      |
| Poyabzal   | 4,7               | 92,4                       |
| Har xil tayyor buyumlar  | 0,2               | 106,2                      |
| Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 0,1               | 8,8 m.                     |
| <b>Xizmatlar</b>   |                   |                            |
| Moliyaviy xizmatlar  | 2,1               | 172,1                      |
| Transport xizmatlari   | 1,9               | 32,2                       |



## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oyida MDH mamlakatlariga **176,4** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **55,9** % ini tashkil etdi.



## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-iyun, % da)



2022- yilning yanvar-iyun oyi yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **18,4** % i) va Qozog'iston (**15,9** %) davlatlari yetakchilik qildi. Yuqoridagi yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **76,1** % ni tashkil etdi.

**SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI  
VA O'SISH SUR'ATLARI** (*yanvar-iyun , yillar kesimida*)



| Davlatlar               | Mln. AQSh dollari |      | O'sish sur'ati,<br>% da |          | O'рни |      |
|-------------------------|-------------------|------|-------------------------|----------|-------|------|
|                         | 2021              | 2022 | 2021                    | 2022     | 2021  | 2022 |
| Rossiya Federatsiyasi   | 49,3              | 58,2 | 172,5                   | 118,0    | 1     | 1    |
| Qozog'iston             | 22,6              | 50,1 | 92,9                    | 2,2 m.   | 4     | 2    |
| Turkiya                 | 18,8              | 38,8 | 140,6                   | 2,1 m.   | 5     | 3    |
| Tojikiston              | 25,2              | 27,7 | 176,0                   | 109,8    | 3     | 4    |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 26,0              | 24,5 | 2,3 m.                  | 94,0     | 2     | 5    |
| Afg'oniston             | 10,7              | 20,9 | 141,5                   | 196,1    | 8     | 6    |
| Qirg'iz Respublikasi    | 15,4              | 20,1 | 158,9                   | 130,3    | 6     | 7    |
| Singapur                | 12,5              | 18,2 | 3,1 m.                  | 145,2    | 7     | 8    |
| Belarus Respublikasi    | 4,1               | 7,7  | 100,8                   | 190,7    | 11    | 9    |
| Ozarbajjon              | 7,5               | 7,4  | 136,9                   | 98,9     | 9     | 10   |
| Polsha                  | 1,2               | 5,6  | 138,4                   | 4,6 m.   | 21    | 11   |
| Litva                   | 0,2               | 4,4  | 16,7                    | 20, 8 m. | 30    | 12   |
| Italiya                 | 3,3               | 3,8  | 31,1 m.                 | 113,6    | 12    | 13   |
| Gruziya                 | 1,3               | 3,6  | 68,6                    | 2,8 m.   | 20    | 14   |
| Eron                    | 2,0               | 2,9  | 194,5                   | 149,5    | 14    | 15   |
| AQSh                    | 1,5               | 2,5  | 96,1                    | 166,1    | 18    | 16   |
| Turkmaniston            | 1,6               | 2,2  | 59,2                    | 137,8    | 17    | 17   |
| Ukraina                 | 5,2               | 2,1  | 166,2                   | 40,4     | 10    | 18   |
| BAA                     | 2,2               | 1,7  | 113,1                   | 78,8     | 13    | 19   |
| Niderlandiya            | 1,0               | 1,6  | 7,7 m.                  | 156,2    | 22    | 20   |



## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun )



| Hudud nomi                | Mln. AQSh dollari | O'sish sur'ati, % da |
|---------------------------|-------------------|----------------------|
| <b>Samarqand Viloyati</b> | <b>315,6</b>      | <b>142,0</b>         |
| Samarqand shahri          | 117,2             | 157,3                |
| Kattaqo'rg'on shahri      | 9,7               | 2,4 m.               |
| tumanlar:                 |                   |                      |
| Oqdaryo                   | 12,0              | 146,1                |
| Bulung'ur                 | 9,1               | 136,3                |
| Jomboy                    | 31,5              | 151,8                |
| Ishtixon                  | 10,9              | 2,6 m.               |
| Kattaqo'rg'on             | 8,7               | 121,7                |
| Qo'shrabot                | 1,4               | 119,5                |
| Narpay                    | 6,7               | 82,8                 |
| Payariq                   | 4,2               | 84,9                 |
| Pastdarg'om               | 9,1               | 111,6                |
| Paxtachi                  | 9,1               | 145,3                |
| Samarqand                 | 30,4              | 111,7                |
| Nurobod                   | 6,0               | 53,5 m.              |
| Urgut                     | 28,2              | 100,7                |
| Toyloq                    | 17,5              | 2,2 m.               |

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Samarqand sh. – 117,2**

**Jomboy t. – 31,5**

**Samarqand t. – 30,4**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Narpay t. – 6,7**

**Payariq t. – 4,2**

**Qo'shrabot t. – 1,4**

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **37,2 %** ulush bilan **117,2 mln. AQSh dollarini**, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,4 %** ulush bilan **1,4 mln. AQSh dollarini** tashkil etdi.




## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **67,1 mln.** AQSh dollari qiymatidagi **93,2** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilinib, jami eksportning **21,3** % ini tashkil etdi. Bunda 2021- yilning mos davriga nisbatan **23,3** mln. AQSh dollariga ko'payish kuzatilib, **53,2** % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksporti tarkibiga qaralsa, **24,0** mln. AQSh dollariga teng **51,7** ming tonna sabzavot, shuningdek, **16,9** mln. AQSh dollari qiymatidagi **14,6** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2022- yil yanvar-iyun )



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston, Belarus Respublikasi hamda Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2022- yil yanvar-iyun )



| Davlatlar   | ming tonna | mln. AQSh dollari | ulushi, % da * |
|---|------------|-------------------|----------------|
|  Rossiya Federatsiyasi   | 16,8       | 16,0              | 23,9           |
|  Xitoy Xalq Respublikasi | 10,5       | 9,7               | 14,5           |
|  Qozog'iston             | 35,8       | 9,1               | 13,6           |
|  Belarus Respublikasi    | 6,9        | 6,8               | 10,1           |
|  Turkiya                 | 3,9        | 4,5               | 6,8            |
|  Ozarbayjon              | 3,0        | 3,8               | 5,7            |
|  Gruziya                 | 2,8        | 2,0               | 3,0            |
|  Ukraina                | 2,0        | 1,4               | 2,2            |
|  AQSh                  | 0,6        | 1,4               | 2,1            |
|  BAA                   | 1,2        | 1,4               | 2,1            |
|  Niderlandiya          | 0,9        | 1,1               | 1,7            |
|  Litva                 | 0,7        | 1,1               | 1,7            |
|  Afg'oniston           | 1,8        | 1,1               | 1,7            |
|  Eron                  | 1,2        | 1,0               | 1,5            |
|  Latviya               | 0,6        | 1,0               | 1,5            |
|  Boshqa davlatlar      | 4,6        | 5,5               | 8,1            |

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **23,9 %** i), bu Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmidan **9,4 %** ga ko'p.

## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

(yanvar-iyun)













Joriy yilda **81,6** mln. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **25,9** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **17,6** % ga o'sdi.

Yil boshidan **122** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **26** ta davlatiga eksport qilindi. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida paxtadan yigirilgan ip (**42,7** %), tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**22,1** %) asosiy ulushni egallagan.

## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



|    | 2020-yil    | 2021-yil    | 2022-yil    |
|--|-------------|-------------|-------------|
| <b>Tovarlar nomi</b>   | <b>34,9</b> | <b>69,4</b> | <b>81,6</b> |
|  Paxtadan yigirilgan ip                   | 7,8         | 27,8        | 34,9        |
|  Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari | 10,4        | 15,1        | 18,0        |
|  Gilamlar                                 | 9,5         | 15,4        | 10,1        |
|  Naqshlimato                              | 0,3         | 3,9         | 4,6         |
|  Boshqa to'qimachilik mahsulotlari        | 1,0         | 2,3         | 4,2         |
|  Paxtadan gazlamalar                      | 2,8         | 0,5         | 2,7         |
|  Ipak va ipak mahsulotlari                | 2,8         | 3,7         | 5,9         |
|  Paxta mahsulotlari                       | 0,1         | 0,1         | 0,1         |
|  Boshqalar                                | 0,1         | 0,4         | 1,0         |











## DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun , mln. AQSh dollari)



|    |                         | 2020- yil | 2021- yil | 2022- yil |
|---|-------------------------|-----------|-----------|-----------|
|    | Turkiya                 | 6,1       | 9,5       | 21,7      |
|    | Rossiya Federatsiyasi   | 10,6      | 15,3      | 19,8      |
|    | Xitoy Xalq Respublikasi | 3,5       | 18,8      | 13,9      |
|    | Qirg‘iz Respublikasi    | 3,6       | 8,6       | 8,6       |
|    | Italiya                 | 0,0       | 2,7       | 3,7       |
|    | Tojikiston              | 0,4       | 0,3       | 3,5       |
|   | Ozarbajjon              | 2,6       | 3,6       | 2,2       |
|  | Afg‘oniston             | 1,2       | 2,4       | 1,6       |
|  | Polsha                  | 0,6       | 0,9       | 1,5       |
|  | Qozog‘iston             | 1,6       | 1,3       | 1,3       |
|  | Eron                    | 0,2       | 0,7       | 0,8       |
|  | Moldova Respublikasi    | 0,1       | 0,2       | 0,5       |
|  | Germaniya               | 0,0       | 0,1       | 0,4       |
|  | AQSh                    | 0,1       | 0,2       | 0,4       |
|  | Boshqa davlatlar        | 4,2       | 4,8       | 1,8       |

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (21,7 mln. AQSh dollari – 26,6 %) va Rossiya Federatsiyasi (19,8 mln. AQSh dollari – 24,2 %) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## SAMARQAND VILOYATINING IMPORTI

(2022- yil yanvar-iyun )




2022- yilning yanvar-iyun oyida import hajmi **827,8** mln. AQSh dollarini va 2021- yilga nisbatan **133,4** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng yuqori ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (**28,2** %), sanoat tovarlari (**26,8** %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**24,0** %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2022- yil yanvar-iyun , ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **207,1** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **826,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **1,3** mln. AQSh dollariga yetdi.

## SAMARQAND VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-iyun , yillar kesimida)



| XSST tarkibi   | Mln. AQSh dollari |              | O'sish sur'ati, % da |              | Umumiy hajmga nisbatan. % da |              |
|--|-------------------|--------------|----------------------|--------------|------------------------------|--------------|
|  | 2021              | 2022         | 2021                 | 2022         | 2021                         | 2022         |
| <b>Jami import</b>   | <b>620,4</b>      | <b>827,8</b> | <b>118,5</b>         | <b>133,4</b> | <b>100,0</b>                 | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>   |                   |              |                      |              |                              |              |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar                                       | 60,9              | 87,4         | 165,3                | 143,4        | 9,8                          | 10,6         |
| Ichimliklar va tamaki  | 0,1               | 0,1          | 93,0 m.              | 96,0         | 0,0                          | 0,0          |
| Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari                                      | 29,4              | 44,3         | 115,0                | 150,9        | 4,7                          | 5,4          |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar                | 13,1              | 11,8         | 132,1                | 90,4         | 2,1                          | 1,4          |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar                      | 13,1              | 10,5         | 177,3                | 80,2         | 2,1                          | 1,3          |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 181,4             | 198,8        | 123,5                | 109,6        | 29,2                         | 24,0         |
| Sanoat tovarlari   | 110,8             | 221,7        | 111,1                | 2,0 m.       | 17,9                         | 26,8         |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari   | 193,4             | 233,1        | 107,5                | 120,5        | 31,2                         | 28,2         |
| Turli xil tayyor buyumlar  | 17,2              | 18,8         | 109,2                | 109,3        | 2,8                          | 2,3          |
| Xizmatlar  | 0,9               | 1,3          | 66,4                 | 141,2        | 0,1                          | 0,2          |

## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun )



| XSST bo'limi nomi  | Mln. AQSh dollari | 2021-yilga nisbatan, % da |
|--|-------------------|---------------------------|
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>  |                   |                           |
| Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar  | 23,5              | 115,1                     |
| Go'sht va go'sht mahsulotlari  | 14,8              | 4,0 m.                    |
| Hayvonlar uchun ozuqalar   | 14,8              | 83,1                      |
| Har xil tayyor mahsulotlar va preparatlar  | 13,6              | 8,8 m.                    |
| <b>Ichimliklar va tamaki</b>   |                   |                           |
| Ichimliklar  | 0,1               | 96,0                      |
| <b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>   |                   |                           |
| Moy olinadigan urug'lar va mevalar   | 25,1              | 179,9                     |
| Probka va yog'och-taxtalar   | 9,6               | 149,3                     |
| Boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo mahsulotlari  | 3,5               | 115,7                     |
| Tabiiy kauchik   | 3,3               | 110,0                     |
| <b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>   |                   |                           |
| Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar   | 10,6              | 88,0                      |
| Ko'mir, koks va briketlar  | 1,2               | 119,9                     |
| <b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>   |                   |                           |
| O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)   | 10,0              | 77,8                      |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar | 0,5               | 2,3 m.                    |
| <b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>  |                   |                           |
| Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari   | 137,4             | 100,4                     |
| Birlamchi shakldagi plastmassalar  | 32,4              | 138,5                     |
| Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy vositalar   | 9,2               | 115,6                     |
| Bo'yoqlar va bo'yovchi moddalar  | 7,5               | 185,4                     |



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2022- yil yanvar-iyun )




| XSST bo'limi nomi  | Mln. AQSh dollari | 2021-yilga nisbatan, % da |
|--|-------------------|---------------------------|
| <b>Sanoat tovarlari</b>  |                   |                           |
| Cho'yan va po'lat  | 148,0             | 2,8 m.                    |
| To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar                                | 30,0              | 120,7                     |
| Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar  | 11,8              | 165,1                     |
| Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlari   | 10,4              | 124,0                     |
| <b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>  |                   |                           |
| Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar   | 87,5              | 156,2                     |
| Avtomobillar   | 84,7              | 93,7                      |
| Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari   | 36,7              | 123,7                     |
| Metalni qayta ishlovchi mashinalar   | 7,7               | 124,3                     |
| <b>Turli xil tayyor buyumlar</b>   |                   |                           |
| Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar  | 7,7               | 137,1                     |
| Boshqa joyda tasniflanmagan maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari  | 5,0               | 155,6                     |
| Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari | 2,6               | 42,1                      |
| Mebel va uning mahsulotlari  | 1,7               | 2,9 m.                    |
| <b>Xizmatlar</b>   |                   |                           |
| Transport xizmati  | 1,2               | 153,6                     |



2022- yil yanvar-iyun oyiga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **42,9%** ni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **8,2 %** ga o'sdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI *(yanvar-iyun , mln. AQSh dollari, ulushi, % da)*



Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Yaponiya, Hindiston va Ukraina) jami importning **73,3 %** ulushini tashkil etdi.

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI *(2022- yil yanvar-iyun , % da)*



**SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI  
VA O'SISH SUR'ATLARI** (yanvar-iyun , yillar kesimida)



| Davlatlar               | Mln. AQSh dollari |       | O'sish sur'ati,<br>% da |        | O'rni |      |
|-------------------------|-------------------|-------|-------------------------|--------|-------|------|
|                         | 2021              | 2022  | 2021                    | 2022   | 2021  | 2022 |
| Rossiya Federatsiyasi   | 91,7              | 167,8 | 123,7                   | 182,9  | 2     | 1    |
| Xitoy Xalq Respublikasi | 101,0             | 151,0 | 77,5                    | 149,4  | 1     | 2    |
| Qozog'iston             | 77,2              | 133,2 | 164,6                   | 172,4  | 3     | 3    |
| Turkiya                 | 57,4              | 51,4  | 115,2                   | 89,6   | 4     | 4    |
| Yaponiya                | 40,2              | 48,2  | 108,1                   | 119,9  | 5     | 5    |
| Hindiston               | 16,7              | 31,7  | 2,3 m.                  | 190,3  | 9     | 6    |
| Germaniya               | 21,3              | 24,1  | 151,4                   | 113,2  | 7     | 7    |
| Sloveniya               | 19,7              | 23,7  | 110,6                   | 120,3  | 8     | 8    |
| Ukraina                 | 28,9              | 22,1  | 2,4 m.                  | 76,5   | 6     | 9    |
| Belarus Respublikasi    | 3,9               | 16,5  | 93,5                    | 4,3 m. | 28    | 10   |
| Eron                    | 13,6              | 15,3  | 157,9                   | 112,6  | 11    | 11   |
| Litva                   | 11,4              | 12,6  | 102,9                   | 110,7  | 13    | 12   |
| Latviya                 | 12,7              | 12,4  | 85,8                    | 97,7   | 12    | 13   |
| Gruziya                 | 10,0              | 9,6   | 109,7                   | 96,0   | 15    | 14   |
| Turkmaniston            | 10,1              | 8,9   | 152,4                   | 88,5   | 14    | 15   |
| Niderlandiya            | 5,3               | 8,9   | 78,1                    | 168,3  | 20    | 16   |
| Vengriya                | 13,8              | 8,4   | 112,3                   | 60,7   | 10    | 17   |
| Polsha                  | 5,0               | 7,9   | 64,3                    | 157,6  | 22    | 18   |
| Bangladesh              | 7,1               | 6,5   | 130,0                   | 91,4   | 17    | 19   |
| Koreya Respublikasi     | 7,4               | 5,2   | 114,8                   | 69,8   | 16    | 20   |

2022- yilning yanvar-iyun oyi yakuni bo'yicha Samarqand Viloyati tomonidan **75** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

## SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2022- yil yanvar-iyun )



| Hudud nomi                | Mln. AQSh dollari | O'sish sur'ati, % da |
|---------------------------|-------------------|----------------------|
| <b>Samarqand Viloyati</b> | <b>827,8</b>      | <b>133,4</b>         |
| Samarqand shahri          | 458,1             | 139,2                |
| Kattaqo'rg'on shahri      | 5,5               | 67,5                 |
| tumanlar:                 |                   |                      |
| Oqdaryo                   | 10,1              | 89,0                 |
| Bulung'ur                 | 2,7               | 72,8                 |
| Jomboy                    | 91,8              | 153,2                |
| Ishtixon                  | 6,3               | 2,3 m.               |
| Kattaqo'rg'on             | 5,0               | 104,0                |
| Qo'shrabot                | 2,2               | 166,6                |
| Narpay                    | 1,7               | 78,2                 |
| Payariq                   | 2,2               | 82,5                 |
| Pastdarg'om               | 29,9              | 2,3 m.               |
| Paxtachi                  | 1,8               | 23,2                 |
| Samarqand                 | 62,9              | 107,3                |
| Nurobod                   | 9,6               | 51,8                 |
| Urgut                     | 68,0              | 150,8                |
| Toyloq                    | 69,8              | 139,3                |

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Samarqand sh. – 458,1**

**Jomboy t. – 91,8**

**Toyloq t. – 69,8**

**Eng quyi hajm,**  
mln. AQSh dollari

**Payariq t. – 2,2**

**Qo'shrabot t. – 2,2**

**Paxtachi t. – 1,8**

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **55,3** % ulush bilan **458,1** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Paxtachi tumani **0,2** % ulush bilan **1,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.: (66) 230 45 23